

METAFORANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7581549>



ELSEVIER



Foundation of Advanced Research Publisher's

**Abdulazizov Dovudbek**

Andijon Davlat chet tillari institute 2-bosqich magistranti va ishchisi



**Abstract:** Bu maqola nafaqat tilshunoslikda balki badiiy adabiyotd ham o'z o'rnini bilan katta ahamiyatga ega bo'lgan metafora va uning bir turi, yoki zoo metaforalarning badiiy adabiyotda tutgan o'rnini hamda qo'llanilishiga bag'ishlanadi. Hamda maqolada metaforaning o'ziga xos xususiyatlari tor doiradagi metafora yo'lovchi metafora asos metaforalari haqid ham fikrlar yoritilgan. Quyidagi keltirilgan ma'lumotlar orqali xayvonlar nomi bilan ishlatiladigan metaforalarni badiiy adabiyotda qo'llanilishi hamda shoir yoki yozuvchilar asarlarida qo'llanish sabablarini ochig'lashga qilamiz.

**Keywords:** Metafora, o'xshatish, taqoslash, tobe so'z, hokim so'z, badiiy, zoo metafora, ekspressiya, sintagmatik, Tor doirada, Yo'lovchi metafora, asos metafora, ma'no ko'chishi, ko'chma ma'no, badiiy asarlard.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

**Received:** 22-01-2023

**Accepted:** 22-01-2023

**Published:** 22-01-2023

Ma'lumki, so'zlar ikkiga bo'linadi: asil ma'noli so'zlar va ko'chma ma'noda qo'llaniladigan so'zlar. Ko'chma ma'noda qo'llaniladigan so'zlar predmet-hodisalarni atabgina qolmay, o'sha predmet va hodisalarni tasvirlash vazifasini ham bajaradi. Ko'chma ma'no tildagi so'zlarning to'g'ri ma'nosi negizida vujudga keladi. Ko'chma ma'noli so'zlar ilmiy va rasmiy uslubdan tashqari barcha uslublarda qo'llaniladi. So'zlarning ko'chma ma'nosi faqat kontekstda reallashadi. Ushbu ko'chma ma'noli so'zlarning bir turi metafora bo'lib, Tilshunoslar orasida fikrlar xilma-xilligi bo'lganidek, metaforagaham turlicha tariflar va fikrlar berilgan. Ikki narsaning bir-biriga o'xshashligi asosida bir so'z bilan ikkinchisini atash metafora (yunoncha metaphore-ko'chirish) deb atalib, u ma'no kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yozuvchilar yoki shoirlar asarlarida metafora ishlatish orqali asardagi qaxramonlarni yoki asarda kelgan xodisa va fikrlarni tasirchanligi va kitobxon uchun oson tasavur qila olishga imkon yaratadi. Metafora xayoliy bir-birga zid bo'lgan so'zlarni taqqoslovchi adabiy vosita xam hisoblanadi<sup>185</sup> Birinchi so'z orqali ikkinchi so'zni yaratilishini taminlaydi. Ushbu usul ya'ni metafora orqali yozuvchilar nomalum bir tushunchani ma'lum tushuncha orqali mavhum go'yalarni ochishga va bog'lashga yoki ma'noni kuchaytirishga erishadi. Undan tashqari asarninig o'quvchiga qiziqarli qilib ko'rsatib diqqatini o'ziga jalb qiladi.

<sup>185</sup> Metaphor - Literary Terms *literaryterms.net* › *metaphor* what is A Metaphor? —Definition and Examples | Grammarly  
[www.grammarly.com](http://www.grammarly.com) › *blog*

Yuqorida keltirilgan tariflardan shuni tushunish mumkumki biron-bir narsa yoki shaxsni yaxshiroq tariflash va uning ma'nosini kuchaytirish maqsadidaxam metaforalardan foydalashni mumkun ekan biz bunga misol qilib shoir **Shekispirining** Genry asaridan misol keltiramiz.

*When I bestride him, I soar, I am a hawk: he trots the air;  
the earth sings when he touches it; the basest horn of his  
hoof is more musical than the pipe of Hermes<sup>186</sup>.*

*Men uni egarlaganimda, men uchaman, men kalxatman, u havoda uchadi, U yerga tegsa yer qo'shiq kuylaydi, Uning eng pastgi tuyogi Hermesning nayiga qaraganda musiqiy.*

Yuqorida keltirilgan misol Shekispirining Genry asaridan olingan bo'lib. Yozuvchi kontekstda otga tarib beryapti va uning qanchalik kuchli ekanligini tariflab kelyapti. Bu gapda kalxat metaofrasi ishlatilgan. Kalxat asosan salbiy ma'nolarda keladi va urishish xoxlaydigon va urish yaratishni xoxlaydigon odamlarga nisbatan ishlatiladi. Keltirilgan misolda tarif berilgan otni mingsam urishishni yoki urishga borishni xoxlashini ifodalab kelyapti.

Yuqorida berilgan misoldan shuni tushinsek bo'ladiki jonivor nomlari bilanham metaforalarni ishlatsek bo'ladi ekan va adabiyotlarda bu kabi misollarga ko'p duch kelishimiz mumkun. Masalan;

*"qishloqning bo'risi ham yuzboshi, tulkisi ham yuzboshi<sup>187</sup>"*

Metafora nihoyatda murakkab hodisa bo'lib, uning tasnifi bir necha xil belgiga ko'ra, bir necha xil bosqichda olib boriladi. Metafora unsurlarining o'zaro munosabatiga ko'ra turlari. Bizga ma'lumki, metafora uch unsur – tema, ifoda vositasi va qiyos uchun asosdan tuziladi. Yuqorida berilgan misolda quydagi metaforalar amal qiladi; yuzboshi - bo'ri, yuzboshi - tulki metaforasida bo'ri va tulki so'zlarida, bo'ri so'zi shavqatsiz, kuchli, ochko'z, yulg'ich ma'nolarini ifodalaydi,—tulki – ifoda vositasi, ayyor, yulg'ich – tema. Yuqoridagi gapda shoir yuzboshini bo'ri va tulkiga o'xshatish orqali uni qishloqning eng kuchli odami va eng ayyor odami ekanligini takidlab kelyapti.

Eng asosiysi yozuvchining metaforadan foydalana olish va badiiy tasvir vositalaridan farqlay olish qobiliyatiga hamda ushbu vositadan foydalanishining aniq maqsadiga uzviy bog'liqdir<sup>188</sup>. Sababi kitobxonga mavhum bo'lgan tushunchalarni tushinarli yetkazib berish yoki o'z so'z orqali ko'p ma'no anglatuvchi jumlar va gaplarni yaratish o'quvchining kitob mutoalasi jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarning bartaraf etishda muhim ro'l kasb etadi va kitobxonni o'ziga jalb etadi.

<sup>186</sup> Shakespeare, Henry V, III, 7

<sup>187</sup> Abdulla Qahhor. O'gri: T:Sharq, 1936-yil

<sup>188</sup> BADIY ADABIYOTDA METAFORA. GEORGE ORWELL "HAYVONLAR FERMASI" (ANIMAL FARM)ASARI MISOLIDA(O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI ASOSIDA) Mahfuza Hoshimova

Yozuvchi yoki shoir o'z asarlarini badiiy malumotlar rangbaranglikga boy qilish va boyoqdorligini oshirish maqsadida metaforalardan foydalanishadi va buni judaxam ajoyib tarzda bajarishadi. Asarlarda o'z axamiyatiga ega kuchli metaforalarni kuzatishimiz mumkin va ular bir gapda muxim ro'l o'ynab o'sha metaforasiz gapning ma'nosi ham chiqmay qolishi mumkin.

Ingliz badiiy asarlarida hayvonlar nomlari bilan kelgan metaforalarni ko'p uchratishimiz mumkin va ular asosan o'z ma'nolarida emas balki ko'chma shaklda shoir yoki yozuvchi tamonidan ishlatiladi. Ingliz badiiy asarlaridagi xayvon nomlari bilan bog'liq metaforalarni ko'rib chiqib yuqorida kelatirilgan ma'lumotlarga asoslanganxolda taxlil qilishga xarakat qilaman.

*"Lions on the Beach - Soxildagi sherlar.<sup>189</sup>"*

Soxildagi sherlar (Bu jumlada esa yozuvchi qaxramoning xisoyotlarini turli kutilmagan holat bilan ifodalashga ishlatgan).Santayago Afrikadagi sohilda sherlar bilan o'ynashni orzu qiladi. Arslonlar yoshlik va hayotning timsoli bo'lib, Santayagoga o'zining bolaligini eslatadi. Santayago qarilik va qo'rquvni yengish uchun kurashadi u endi o'z qishlog'idagi raqobatbardosh yosh baliqchilarga ergashadigan darajada baquvvat emas. Arslonlar unga baxtli, muvaffaqiyatli vaqtlarni eslab qolishga va hozirgi umidsizliklariga qaramay, tinchlik va umid topishga yordam beradi.

*"It resembled the face of a sheep, and voice, too, had a sheep-like quality.<sup>190</sup>"*

*U qo'yning yuziga o'xshardi, ovozi ham qo'yga o'xshagan xususiyatga ega edi.*

Ushbu jumlada "qo'y" metafora amal qilyapti va quydagi ma'nolarni beryapti; yuzi qo'yga o'shgan, ovozi qo'yniki kabi. Qo'y so'zi buyerda eski, qari, xunuk, degan ma'nolarda kelyapti. U qo'yning yuziga o'xshardi, ovozi ham qo'yga o'xshagan xususiyatga ega edi. (Ushbu jumladan biz shuni kuzatishimiz mumkunki "qo'y" metaforaso orqali hikoyachi sochlari oppoq, echki soqolli Goldshteynning yuzini *sheep* (qo'y) metaforasi oraqali ifodalayapti.

*"He is a dark horse."*

*U ko'rinmas odam.*

Ingliz xalqlari orasida siz agar biron kishi bir shaxsni tariflamoqchi bo'lsayu u xaqida malumot juda kam bo'lsa va u o'zi yolg'iz yuradigon shaxs sifatida *dark horse* deb taqqislashadi.

***"Black sheep"***

***Qora qo'y***

Odatda yevropa qittasida va Amerikada qo'ylarning rangi oq yoki sariq bo'ladi.Shuning uchun biron-bir gurux ichida ajralib qoladigon isnsondi, oq poda qo'ylar orisad ajralib turgan yagona qora qo'ydek taqqoslanyapdi. (ma'lum bir guruxda ajralib qoladigan shaxsga nisbatan ishlatiladi)

---

<sup>189</sup> Ernest Hemingway "the old man and sea"

<sup>190</sup> 1984 by George Orwell Chapter 1

*“Beating a dead horse”*

*O'lik otni do'pposlash.*

O'lik otni do'poslash- bu iboramizda *horse (ot)* biron bir narsa yoki ish ma'nosida kelyapdi va bajarilgan ishni yana bajarish degan ma'noni anglatyapdi.

*“Arslonim uyatga qolmasin deb, ikki savat uzum berib yuboruvdim<sup>191</sup>”*

Ushbu misoldagi metaforik so'z Arslonim sintagmatik munosabat xisoblanadi. Bu sintagmatik munosabat ikkiga bo'linadi;

1. Tor bir jumla doirasida bo'ladi. Masalan; “Valixon sofi muloyum mushik bo'lib qolibdi<sup>192</sup>”

2. Keng matn (kontekst) doirasida yoki sharoit (konsituatsiya) doirasida: “Ayamning odam zavodida tuqqani og'izga tushib ketdi<sup>193</sup>”. Odam zavodi (aniqrog'i, zavod) metaforik so'z bog'lanadigan so'z —tug'ruqxona (ancha keng matndan ma'lum bo'ladi).

Yuqoridagi Misolda keltirilgan ARSLONIM so'zi- sintagmatik bog'lanuvchi so'z ersituativ sintagma (agar shunday ta'bir mumkin bo'lsa, assotsiativ sintagma)da munosabatda turuvchi metaforalarni shu sintagmatik munosabatlarning aniqligi hisobiga ochiq, keng sintagmatik munosabatda turuvchi metaforalarni esa yopiq deb ataymiz.

*“Every family has a black sheep”*

Yuqorida keltirilgan misl Ingliz xalq maqoli xisoblanib u o'zbek tiliga “*Yomon mo'ridan yomon tutun chiqar*” Maqoliga tog'ri keladi va bu maqolda metafora (qora qo'y) so'zi orqali berilyapti. Yevro'pa davlatlarida bilamizi osiyo davlatlaridek qora qo'ylarni uchratish qiyin shuning uchun biron bir guruxda salbiy tasurotga ega bo'lgan shaxsga nisbatan “black sheep” so'zini ishlatiladi va bitta yomon odam butun oila, jamoa va guruhga soya solishi berilgan nazarda tutilyapti.

Metafora judayam murakkab hodisa xisoblanib, uning tasnifi bir qancha belgilarga ko'ra, bir necha xil bosqichlarda olib boriladi. Metafora unsurlarining mutanosibligiga ko'ra turlarga bo'linadi ular : Tema, ifoda vositasi va qiyos asosida tuziladi. Masalan: “*Qishloqning bo'risi ham yuz boshi, tulkisi ham yuzboshi<sup>194</sup>*” bu gapda quydagi metaforalar amal qilgan: yuzboshi - bo'ri, yuzboshi - tulki metaforasida bo'ri va tulki so'zlarida, bo'ri so'zi shavqatsiz, ochko'z, yulg'ich ma'nolarini ifodalaydi, —tulki - ifoda vositasi, ayyor, yulg'ich - tema. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, metaforada nom ko'chish odatda miqdoran tenglik asosiga qurilavermaydi. Faqat mazmuniy tenglik zaruriy hisoblanadi. Shuningdek, bu tenglik ham nisbiy aniqlanadi. . Ya'ni metaforik qo'llangan bir so'z aynan bitta so'zning o'rnida kelgan deb bo'lmaydi. Yuqorida keltirilgan bo'ri metaforasi -

<sup>191</sup> A. Qahhor. “Sarob”. O'zbekiston Davlat nashriyoti. Toshkent-Samarqand, 1937 yil, 118-bet.

<sup>192</sup> Abdulla Qahhor. “O'tmishdan ertaklar”. Qissa va hikoyalar to'plami, T.:Yosh gvardiya nashriyoti, 1976 yil, 114-b.

<sup>193</sup> Abdulla Qahhor. “O'tmishdan ertaklar”. Qissa va hikoyalar to'plami, T.:Yosh gvardiya nashriyoti, 1976 yil, 98-b.

<sup>194</sup> Abdulla Qahhor. O'gri: T:Sharq, 1936-yil.\

shavqatsiz, ochko‘z. Demak, bu yerda miqdoriy emas, mazmuniy tenglik nazarda tutiladi va bu tenglik ham nisbiydir. Chunki bo‘ri so‘zida qiyoslash uchun asos bo‘lgan semalar bilan mutanosib motivlar nutqiy sharoit talabiga ko‘ra turlicha bo‘la oladi: xarakter jihati, tabiiy jihatlar, tashqi ko‘rinish va hokazo. Dj. Miller<sup>195</sup> metafora yaratuvchi aniq so‘zlarni nazarda tutgan ham, tutmagan ham bo‘lishi mumkin, ular ishlatilmagani tufayli biz buni hech qachon aniqlay olmaymiz deydi. Metafora unsurlarining bu xil munosabati yanada chuqurlashtirilishi mumkin. Ya‘ni temagina emas, ifoda vositasi ham konkret so‘zlar bilan ifodalanmaydi: chiqdi

–“chiqdi degan so‘z gapda ormaladi<sup>196</sup>” O‘rmlash gapga xos xususiyat emas, demak, bu yerda metafora bor. Ammo gap nima deb tasavvur qilinayapti? Konkret javob yo‘q. Shugina ma‘lumki, u qandaydir o‘rmlay oladigan jonzodga qiyoslanmoqda, ya‘ni metafora yaratuvchi o‘z ifoda vositasini konkret aytmaydi, balki metafora qabul qiluvchini yo‘llaydi. Metaforani oxirigacha yechish adresat ixtiyorida qoladi. Kelib chiqadiki, metafora unsurlari munosabatining mutanosiblik va konkreterlik tabiatiga ko‘ra ikki xil ekan:

1. Ifoda vositasi tema bilan mazmunan mutanosib va konkret ifodalangan (ya‘ni metaforaning asosiy unsurlari mavjud) – asos metafora.

Ifoda vositasi konkret ifodalanmaganligi sababli mazmuniy mutanosiblik ham qisman noaniqlashgan. Biroq uni aniqlash uchun yo‘llanma komponent mavjud. Yo‘llovchi metafora. Bu o‘rinda shunga etibor qaratish lozimki, yo‘llovchi metaforaning murakkab lissoniy tabiati ularning tarqalishiga to‘siqinlik qilmaydi. Yo‘llovchi metaforani turlari: bo‘lmish, jo‘naltirish, yoki shaxslantirish haqidaolib borilgan tadqiqotlar uning juda ko‘p tarqalgan turlaridan ekanligini tasdiqlaydi<sup>197</sup>. Metaforaning sintagmatik qatordagi munosabat belgisiga kora turli. Metaforik qo‘llangan so‘z sintagmatik munosabatga kiriuvchi so‘zni shartli ravishda metaforalanayotgan so‘z deb ataymiz<sup>198</sup>. Masalan, “Ular mardikorlikka yuborilgan yurt sovuq do‘zax deyishibdi<sup>199</sup>”. Bu yerda metaforik so‘z – sovuq do‘zax (aniqrog‘i, do‘zax). Metaforalanayotgan soz yurt. Metaforalanayotgan va metaforik so‘z o‘zaro sintagmatik munosabatda turadi. Ammo bu sintagmatik munosabat ikki xil bo‘la oladi:

1. Tor doirada ya‘ni bir so‘z orqali. Masalan : “Valixon Sofi Muloyim supurgi bo‘lib qolibdi<sup>200</sup>”,

<sup>195</sup> Miller, Carol (2012). *Up All Night: My life and Times*. New York: Ecco. Pp.115-116. ISBN 9780061845246.

<sup>196</sup> Abdulla Qahhor. *Bemor*: T.: Sharq, 1936-yil.

<sup>197</sup> Усмонов С. Метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1964. - № 4. – Б. 34-36.

<sup>198</sup> Тоҳиров З. Метафора лексема-семемасининг прагматик семаси. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1983. - № 1. – Б. 74-77.

<sup>199</sup> А. Qahhor. “Sarob”. O‘zbekiston Davlat nashriyoti. Toshkent-Samarqand, 1937 yil, 73-bet

<sup>200</sup> Abdulla Qahhor. “O‘tmishdan ertaklar”. Qissa va hikoyalar to‘plami, T.: Yosh gvardiya nashriyoti, 1976 yil, 114-b.

2. Keng matin(kontekts) doirasida yoki sharoit doirasida. Masalan: Keng matn (kontekst) doirasida yoki sharoit (konsituatsiya) doirasida: “Ayamning odam zavodida tuqqani og’izga tushib ketdi<sup>201</sup>”. Odam zavodi (aniqrog’i, zavod) metafrik so‘z bog’lanadigan so‘z – tug’ruqxon (ancha keng matndan ma’lum bo’ladi). “Arslonim uyatga qolmasin deb, ikki savat uzum berib yuboruvdim<sup>202</sup>” . Arslonim-sintagmatik bog’lanuvchi so‘z ersituativ sintagma (agar shunday ta’bir mumkin bo’lsa, assotsiativ sintagma)da munosabatda turuvchi metaforalarni shu sintagmatik munosabatlarning aniqligi hisobiga ochiq, keng sintagmatik munosabatda turuvchi metaforalarni esa yopiq deb ataymiz.

Metafora nomlanish jihatidan ham turlicha. Metaforani faqatgina poetik figura deb hisoblovchi tadqiqotchilar ham unda ekspressivlik belgisi muntazam emasligini tan olganlar. Shunga ko’ra metaforani ikki turga bolishgan:

1. Ekspressiya mavjud bo’lmagan (o’lik tilga xos, nopoetik) metafora.
2. Ekspressiya mavjud (tirik, nutqiy, badiiy, poetik) bo’lgan metafora.

Turli olimlarning qarashlari jamlanganda, ularning hammasi ham yuqorida qayd etilgan holatni metaforaning ekspressiv, noekspressiv bo’la olishini nazarda tutganini ko’rsatadi. Ekspressiv metaforalar keng holda<sup>203</sup>, noekspressiv metafora shaxsiy bo’lib qolishi ham mumkin. Masalan-Bolla choynakning jo’mragini choynakning burni deb atashi yoki moshinaning yoritish chiroqlarini moshinaning ko’zlari diyishi bolla uchun ham bir marotabalik akt bo’lisi mumkun<sup>204</sup> . Yuqorida berilgan misollar belgining muntazam emasligini ya’ni bir martalik yoki ko’p martalik emasligini ko’rsatadi. Ekspressivlik, metaforaning nomeyoriyligi haqidagi qarashlar esa har qanday metafora asosida lisoniy meyorlar yotishini nazardan chetda qoldirish natijasidir<sup>205</sup>. Quyidagi misollarga e’tibor qiling: Ekspressiv metafora - hammaning nazarida hurriyatning chashmasi. “Men qishloqqa ilm-ma’rifat urug’ini sochgani kelganman<sup>206</sup>”. Noekspressiv metafora - “Eshik og’zida qo’l bog’lab turgan ayam o’ choq boshida yig’lab o’tiribdi<sup>207</sup>”. Eshik og’zi yoki o’choq boshi noekspressiv metaforalarni hurriyatning chashmasi ilm-ma’rifat urug’i ekspressiv metaforalari bilan qiyoslasak, ular noekspressiv bo’lib qolgan emas, aslida ham hech qachon noekspressiv bo’lmagan. Zamonaviy muallif — rux parvozil atamasini o’z nutqiga olib kirar ekan, maqsad ko’tarinki uslubni ta’minlash bo’ladi, diniy qarashlarni isbotlash emas<sup>208</sup>. Noekspressivlikni isbotlash uchun tilga xos bo’lgan asos qidirish lozim. Bizningcha, bu asos juda sodda bo’lib, nomlash jarayonida yotadi. Noekspressiv metafora shunchaki nomlashni,

<sup>201</sup> Abdulla Qahhor. “O’tmishdan ertaklar”. Qissa va hikoyalar to’plami, T.:Yosh gvardiya nashriyoti, 1976 yil, 98-b.

<sup>202</sup> A. Qahhor. “Sarob”. O‘zbekiston Davlat nashriyoti. Toshkent-Samarqand, 1937 yil, 118-bet.

<sup>203</sup> Ye.K.Betger. “Turkiston to’plami 3-jild”, T.1939 yil.

<sup>204</sup> Ye.K.Betger. “Turkiston to’plami 3-jild”, T.1939 yil.

<sup>205</sup> Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Т.: Фан., - 1975б 55б.

<sup>206</sup> Abdulla Qahhor. Asarlar(5 tomlik).-T.:G’afur G’ulom nomidagi nashriyot, 1987-1989.

<sup>207</sup> Abdulla Qahhor. “O’tmishdan ertaklar”. Qissa va hikoyalar to’plami, T.:Yosh gvardiya nashriyoti, 1976 yil, 117-b.

<sup>208</sup> Кўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977, 16б.

ekspressiv metafora nomlash va baholashni nazarda tutadi. Shuning uchun ham metaforaning ekspressiv va noekspressiv turlarini biz metaforaning nomlash jarayoni tabiatiga ko‘ra turlari deb atadik<sup>209</sup>.

### XULOSA

Yuqorida keltirib o‘tilgan ma‘lumotlar va misollardan shuni tushundimki metafora ikkita bir-biriga zid bo‘lgan yoki o‘xshamagan narsani bog‘lashda hamda yozuvchining fikrlarini tniq va ravshan qilish uchun ham ishlatish mumkin ekan. Ayniqsa xayvonlar nomlari va ularning jonlantish vaqtida metafora yozuvchilarga judaxam qo‘l keladi va asarning rangbarangligini oshiradi. Bunga qo‘shimcha qilib aytishim lozimki metafora orqali yozuvchi yoki shoir kitobxonning e‘tiborini tortish va o‘z fikrilarini terang ikkinchi fonda aks etirishda ham ko‘p foydalanadi. Shuningdek men bu izlanishdi jarayonida shuni tushinib yetdimki metaforadan biz insonlar oddiy kunlik hayotimiz juda ham ko‘p ishlatib undan fikirlamizni ifoda etishda qo‘llaymiz va askiyachilarning ham asosiy qurollaridan biri bu metafora ekanliginixam juda yaxshi tushunib yetdim. : metafora lingvistik hodisa sifatida hamma joyda til va nutqqa hamrohlik qiladi; ko'plab tilshunoslar metafora bilan shug'ullanadilar; ular metaforani turli nuqtai nazardan ko'rib chiqadilar va bu hodisaga tilda o'zlarining ta'riflarini beradilar. Biz ushbu izlanishda A.P.Chudinovning fikriga amal qilamiz, u metaforani ikkita kontseptual sohani birlashtirgan va yangi soha yordamida manba sferasini strukturalash imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratadigan asosiy aqliy operatsiya sifatida belgilaydi.

### QO‘LLANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Qahhor. O'gri: T:Sharq, 1936-yil
2. BADIY ADABIYOTDA METAFORA. GEORGE ORWELL “HAYVONLAR FERMASI” (ANIMAL FARM)ASARI MISOLIDA(O“ZBEK VA INGLIZ TILLARI ASOSIDA) Mahfuza Hoshimov
3. Ernest Hemingway “the old man and sea”
4. 1984 by George Orwell Chapter 1
5. Qahhor.“Sarob”. O‘zbekiston Davlat nashriyoti. Toshkent-Samarqand, 1937 yil ,118-bet.
6. Abdulla Qahhor. “O‘tmishdan ertaklar”.Qissa va hikoyalar to‘plami, T.:Yosh gvardiya nashriyoti,1976 yil, 114-b.

<sup>209</sup> Мамажонов А., Махмудов У. Услужбый воситалар. – Фарғона, 1996, 206.

7. Abdulla Qahhor. "O'tmishdan ertaklar". Qissa va hikoyalar to'plami, T.:Yosh gvardiya nashriyoti,1976 yil, 98-b.
8. Abdulla Qahhor. O'gri: T:Sharq, 1936-yil.\
9. Miller,Carol(2012). Up All Night:My life and Times. New York:Ecco. Pp.115-116.ISBN 9780061845246.
10. Abdulla Qahhor. Bemor:T.:Sharq, 1936-yil.
11. Усмонов С. Метафора // Ўзбек тили ва дабиеси. - 1964. - № 4. - Б. 34-36.
12. Тоҳиров З. Метафора лексема-семемасининг прагматик семаси. // Ўзбек тили ва адабиеси. - 1983. - № 1. - Б. 74-77.
13. Qahhor."Sarob". O'zbekiston Davlat nashriyoti. Toshkent-Samarqand, 1937 yil ,73-bet
14. Abdulla Qahhor. "O'tmishdan ertaklar".Qissa va hikoyalar to'plami, T.:Yosh gvardiya nashriyoti,1976 yil, 114-b.
15. Abdulla Qahhor. "O'tmishdan ertaklar".Qissa va hikoyalar to'plami, T.:Yosh gvardiya nashriyoti,1976 yil, 98-b.
16. Qahhor."Sarob". O'zbekiston Davlat nashriyoti. Toshkent-Samarqand, 1937 yil ,118-bet.
17. Ye.K.Betger. "Turkiston to'plami 3-jild", T.1939 yil.
18. Ye.K.Betger. "Turkiston to'plami 3-jild", T.1939 yil.
19. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. - Т.: Фан., - 1975б 55б.
20. Abdulla Qahhor. Asarlar(5 tomlik).-T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1987-1989.
21. Abdulla Qahhor. "O'tmishdan ertaklar".Qissa va hikoyalar to'plami, T.:Yosh gvardiya nashriyoti,1976 yil, 117-b.
22. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. - Тошкент: Фан, 1977, 16б.
23. Мамажонов А., Махмудов У. Услужбий воситалар. - Фарғона, 1996, 20б.